

O'ZBEKISTONING ELEKTR ENERGIYA ISTEMOLI VA ENERGIYA
TEJAMKORLIGI

Kadirov Kamoliddin Shuxratovich

PhD, kat.i.x. TDTU

Karimqulov Sardor Yunusjon o'g'li


Magistrant TDTU

Annotatsiya: Resurslardan energiya samarador foydalanish tamoyili nafaqat kelajak avlod uchun energiya zahiralarini iqtisod qilish, balki mahsulotning tannarxini pasaytirish, shuningdek mahalliy korxonalarining ichki va jahon bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirishga qodir, bu esa o'z navbatida iqtisodiyotning o'sishiga yordam beradi

Kalit so'zlar: Issiqlik elektr stansiyalari(IES), Gidro elektr stansiyalar(GES), umumiy quvvat birligi (MVA), Diversifikasiya, elektr o'lchov birligi kVt soat.


Mamlakatda elektr iste'moli har yili ortib bormoqda. Agar 2000-yilda bir oilaning oylik iste'moli 114 kVt / soatni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilga kelib u 35% ga oshdi va 160 kVt / soatga yetdi. 2017 yilning 16 iyulidan boshlab Qирг'изистон О'zbekistonga 1,2 milliard kilovatt-soat elektr energiyasini eksport qilmoqda. Bir kilovatt-soat narxi 2 tsent. Avvalroq «O'zbekenergo» vakillari vakillari Qирг'изистондан arzon elektr energiyasi etkazib berish energiya tizimining ishlashini optimallashtirish va qishloq xo'jaligini elektr energiyasi evaziga olingan suv resurslari bilan ta'minlash uchun amalga oshirilayotganini aytdi [1].

O'zbekiston iqtisodiyotida elektr energiya ishlab chiqarish muhim rol o'ynaydi. Uni ishlab chiqarish uchun eng ko'p yoqiladigan tabiiy gazdir va bu ko'rsatkich qariyb 87%ni tashkil qiladi. Jumladan, mamakkatimizda tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha taqsimot quyidagicha:



1-rasm.O'zbekistonda elektr energiya ishlab chiqarishda tabiiy resurslar istemoli.

Shuningdek, ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 86% qismi respublikamizdagi issiqlik elektr stansiyalari hisobiga to'g'ri keladi. Bu bo'yicha o'zaro ulushlar taqsimoti quyidagi ko'rinishda [2]



2- rasm.O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi ulishi.

Hozirgi davrda O'zbekiston energetika sistemasi 19 ming sanoat, 80 ming qishloq xo'jaligi, 19 ming kommunal va 3,5 mln. maishiy iste'molchilarni energiya bilan ta'minlaydi. 0.4-6-10 kV kuchlanishli elektr uzatish yo'llarining yalpi uzunligi 190 ming km dan ortiq. Respublika bo'yicha jami elektr energiyasi iste'moli 46,1 mlrd. kVt. soatni tashkil etadi.

Energetika Respublika xalq xo'jaligining negiz tarmog'i, respublikada iqtisodiyot va tehnika taraqqiyotining mustaxkam poydevori hisoblanadi. O'zbekiston energetika sistemasi umumiy o'rnatilgan quvvati 11,5 mln. kVt bo'lgan 37 issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarida yiliga 55 mlrd. kVt.s dan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. O'zbekiston energetika sistemasining barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlarining umumiy uzunligi qariyb 228 ming km ni tashkil qiladi [3].

Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 MVA ga teng. Hozir respublika energetika tizimida 60 mingga yaqin kishi ishlaydi.

Respublikada eng yirik issiqlik elektr stansiyalari

1-jadval

Nomi	O'rnatilgan quvvatlari MVt	Turboag-regatlar soni	Qurilgan yillar	Joylashgan shaxar	Izoh
Sirdaryo GRES	3000	10	1972-1981	Shirin	
Yangi Angren GRES	1800	6	1985-qurilish davom etmoqda	Nurobod	Loyixa quvvati 2400 MVt
Toshkent GRES	1860	12	1963-1971	Toshkent	
Navoiy GRES	1250	11	1963-1981	Navoiy	
Angren GRES	484	8	1957-1963	Angren	

JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)

Taxiatosh GRES	730	5	1961-1990	Taxiatosh	
Talimarjon GRES	-	-	Qurilishi 1984 yilda boshlangan	Nuriston	Loyixa quvvati 3200 MVt

Gidroenergetika. O'zbekiston energetika sistemasida jami 27 GES larda o'rnatilgan quvvatlar 1420 MVt ni tashkil etadi. Ularda 6331,2 mln.kVt.s. elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda.O'zbekiston gidroenergetikasi rivojlantirishda Pskom daryosi, Tupalang, Hisarak, Oxangaron suv omborlarida GESlarni loyixalash va qurish yo'nalishi yetakchi o'rinda turadi.

Issiqlik energetikasi. 60 – yillarda respublikada elektr energiyasi xosil qilishni ko'paytirish asosan gazda ishlaydigan yirik IES ni ishga tushirish yo'nalishida olib borildi. Yirik IESlar qurilishi natijasida O'zbekiston energetika sistemasining o'rnatilgan quvvatlari 11,3 ming MVt ga yetdi. Yaqin yillarda Yangi Angren GRESida 8-blak va Talimarjon GRESning 1-blakini ishga tushirish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Energetika va elektrlashtirish vazirligi tarkibida loyixa, qurilish-montaj, sozlash, ta'mirlash va ishlatish tashkil otlarining to'la majmui energetika tizimining ishonchli ishlashini va istiqbol taraqqiyotini ta'minlaydi. O'zbekiston energetika sistemasi xozir respublika xalq xo'jaligi va aholisining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini to'la ta'minlamoqda va elektr energiyasini qisman qo'shni davlatlarga e Respublikada eng yirik gidroelektr stansiyalari

2-jadvalksport qilmoqda.

Nomi	O'rnatilgan quvvatlar MVt	Qurilgan yillar	Joylashgan shahri	Izohlar
Farg'ona IEM	330	1956-1979	Kirguli	Loyixa quvvati 140 MVt
Muborak IEM	60	1985-1988	Muborak	
Toshkent IEM	30	1939-1954	Toshkent	

Yirik issiqlik elektr markazlari
3-jadval
«O'zbekenergo» DAK da 2004-2007-yillarda energiya tejam korligi bo'yicha
bajarilgan ishlarning natijalari [4].

Nomi	O'ichov birligi	Reja	Haqliqi	Bajaralishi %
2004-yil				
Elektr energiya	Mld.kVt. s	26.2	33.4	127
Issiqlik energiyasi	ming.Gk al	1885	5424	287
Yoqlig'i	T.sh.yo.	18535	20664	111
2005-yil				
Elektr energiya	Mld.kVt. s	542	547	100
Issiqlik energiyasi	ming.Gk al	2153	63177	2934
Yoqlig'i	T.sh.yo.	52000	328000	630

Nomi	O'rnatilgan quvvatlar MVt	Turbinalar soni	Qurilgan yillar	Suv manbai
Chorvok GES	520,5	4	1970-1972	Chirchiq
Ko'jakent GES	165	3	1976	Chirchiq
G'azalkent GES	120	3	1980-1981	Chirchiq
Faxxod GES	126	4	1948-1949	Sirdaryo

Nomi	O'rnatilgan quvvatlar MVs	Turbinalar soni	Qurilgan yillar	Suv manbai
Chorvok GES	620,5	4	1970-1972	Chirchiq
Xo'jakent GES	165	3	1976	Chirchiq
G'azalkent GES	120	3	1980-1981	Chirchiq
Faxxod GES	126	4	1948-1949	Sirdaryo

Yoqilg'i

iste'molini - diversifikasiya - tuzilmasini o'zgartirish ko'zda tutiigan: ya'ni, ko'mir iste'moli ulushini oshirish va tabiiy gaz iste'molini qisqartirish 2015-yilga kelib ko'mir iste'moli ulushi 4,4% dan 13,2% gacha ortdi. Bunda gaz iste'moli hajmi 14,2 m lrd-m 3 ni, ko'mir - 9.4 mln. tonnani tashkil etdi.

Energiya tejamkorligi O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining birinchi va barcha xo'jalik subyektlari faoliyatida ahamiyatli yo;nalish boiib kelmoqda. Energiya tejamkorligining uchta asosiy yo'nalishlari mavjud:

1. Yoqilg'i va energiyadan oqilona foydalanish bo'yicha kam sarfii tadbirlar: bu ularning iste'molini 10-12% ga qisqartirish imkonini beradi.

2. Katta kapital m ablaglari talab qiladigan tadbirlarni tatbiq etish: energiya tejovchi texnologiyalar, jarayonlar, apparatlar va jihozlar. Bu energiyaga bolgan talabni 25-30% ga kamavtirishga olib keladi [5].

3. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda ko'p energiya sarf qilmaydigan soha ulushini oshirish bilan bog'liq bo'lган iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish.

Yoqilg'i-energetika majmuasining tezkor rivojlanishi bizning davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. Mamlakat rahbariyati qabul qiigan choralar natijasida, O'zbekiston 1995-yildayoq neft va umuman energetika mustaqilligiga erishdi. Hozirgi paytda respublikaning o'z-o'zini ta'minlashini hisobga olib. sanoat sohalarini ustuvor rivojlanishi asosida respublikani zaruriv sifatga ega bo'lган energiya resursiga bo'lган talabini o'rta muddat va uzoq muddatli qoniqtirish choralar ko'rilmoxda.

Sanoat korxonalarining energetik xo'jaligi samaradorligini oshirishning asosiy masalalari, bu:texnologik jarayonlarni takomillashtirish, uskunalarini ishlatish sifatini yaxshilash, birlamchi yoqilg'i va boshqa energetik resurslarning sarfini minimalga keltirish, berilgan sanoat mahsuloti sonini, ishlab chiqarishda xizmat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilar sonini va kapital qo'yilmalarini qisqartirish, energiya manbalari quvvatini oshirishdan iborat.

ADABIYOTLAR:

1. Аллаев К.Р. Электроэнергетика Узбекистана и мира – 1 “Fan va texnologiya”
2. Spot.uz “O'zbekistonning energetika sohasidagi muammolar”
18- yanvar 2019 yil.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH
VOLUME6 ISSUE-5 (30-May)**

3. “Правила проведения энергетических обследований и экспертиз потребителей топливо-энергетических ресурсов” Постановление КМ РУз от 7 августа 2006 года N164.

4. Xoshimov Foziljon Abidovich.Taslimov Abduraxim Dexqonovich
Energiya Tejamkorlik Asoslari «Voris-Nashiryot» Toshkent – 2014.

5. Тешабаев Б М Энергосбережение –основа энергоэффективности.
Проблемы энерго- и ресурсосбережения.-Т. 2007 N 3-4 , с 25-36